

**OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNI PAYDO BO‘LISHI, RIVOJLANISH  
TENDENSIYASI VA ULARNI BARTARAF ETISHDA XORIJIY  
DAVLATLAR TAJRIBALARI .**

**ВОЗНИКНОВЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ БЕСПОРЯДКОВ,  
ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ И ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО ИХ  
УСТРАНЕНИЮ.**

**THE EMERGENCE OF PUBLIC DISORDER, DEVELOPMENT  
TENDENCIES AND THE EXPERIENCES OF FOREIGN COUNTRIES IN  
ELIMINATING THEM**

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
Magistratura fakulteti tinglovchisi  
podpolkovnik **Hamiraev Sobir Qahramonovich***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ommaviy tartibsizlik o'zi nima, uni paydo bo'lishi, rivojlanish tendentsiyasi (tendentsiya o'zi nima degani), xorijiy davlatlarda ommaviy tartibsizliklar paydo bo'lganida qanday bartaraf etish yo'llari yoritilib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Ommaviy tartibsizlik, ommaviy tartibsizlikni oldini olish, jamoat xavfsizligi, jamoat joyi, jamoat tartibi, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarlik, qonun, modda.

**Аннотация:** В данной статье объясняется, что такое массовые беспорядки, их появление, тенденция развития (какова сама тенденция), а также способы ликвидации массовых беспорядков в зарубежных странах.

**Ключевые слова:** Общественные беспорядки, предотвращение общественных беспорядков, общественная безопасность, общественное место, общественный порядок, поддержание общественного порядка, правонарушение, закон, статья.

**Abstract:** In this article, what is mass disorder, its emergence, development trend (what is the tendency itself), and how to eliminate mass disorder in foreign countries will be explained.

**Key words:** Public disorder, prevention of public disorder, public safety, public place, public order, ensuring public order, offense, law, article.

**Ommaviy tartibsizliklar** - jamoat tartibi va fuqarolarning shaxsiy xavfsizligiga tahdid soladigan zo‘ravonlik, qirg‘in, o‘t qo‘yish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, hokimiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatish shakllarida namoyon bo‘ladigan olomonning tartibsiz harakati.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va demokratiyani kengaytirish jarayonlari fuqarolarning siyosiy faolligining oshishi va fuqarolarning ijtimoiy hayotning turli masalalarida individual va ommaviy axborot vositalarida fikrni ifoda etish shakllarining kengayishi bilan birga kechmoqda.

Bularning barchasi davlat organlari oldiga jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda, fuqarolar xavfsizligi va huquq-tartibotni bir vaqtda ta‘minlash bilan bog‘liq vazifalarni yuklamoqda.

Tashqi kuchlar geosiyosiy jarayonlarda ayrim mamlakatlardagi fuqarolarning ijtimoiy faolligidan o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishda foydalanishmoqda.

Sun‘iy yo‘l bilan ommaviy tartibsizliklar uyushtirib ushbu davlatda siyosiy beqarorlik holatini vujudga keltirishmoqda.

Jamiyatda mavjud har qanday illatga qarshi samarali kurash olib borish, ayniqsa, unga ta‘sir qiluvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun uning mohiyati, kelib chiqishi, tarkibi va ko‘rinishlari, rivojlanish qonuniyatlari hamda tarixiy kelajagi haqida chuqur ilmiy asoslangan bilimga ega bo‘lish zarur.

Ushbu talablardan kelib chiqqan holda, avvalo, ommaviy tartibsizliklar tushunchasi va mohiyati xususida to‘xtalib o‘tishimiz joiz.

Ommaviy tartibsizliklarga jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning bir ko‘rinishi sifatida quyidagicha ta‘riflash mumkin:

Olomon tartibsizliklarning asosiy elementi bo‘lib, bunda zo‘ravonlik harakati jamoat xavfsizligi va davlat hokimiyatining normal faoliyat yuritishiga qarshi qaratilmoqda.

Bundan tashqari, davlat boshqaruvini izdan chiqarish, konstitutsiyaviy tuzumni o‘zgartirish, fuqarolar sog‘ligi va mol-mulkiga zarar yetkazish darajasidan kelib chiqib, favqulodda holat rejimini joriy qilishgacha bo‘lgan jarayonlarni ham o‘zida namoyon qilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 19-bandida favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda, fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi, qabul qilingan qarorni 3 kun mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tasdig‘iga kiritadi, deyilgan. Bu ommaviy tartibsizliklar, favqulodda holat e‘lon qilinishiga asos bo‘lishi mumkinligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlarini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, ommaviy tartibsizliklar vaqtida jinoyat sodir etish og‘irlashtiruvchi holat sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, ommaviy tartibsizliklar jinoiy-huquqiy jihatdan alohida og‘ir jinoyat sifatida ta‘riflangan. Chunki aksariyat hollarda ommaviy tartibsizlik vaqtida boshqa turdagi bir qator og‘ir jinoyatlar ham sodir etiladi. Odatda, ommaviy tartibsizlik natijasida yetkazilgan zarar, boshqa jinoyatlar oqibatida keltirilgan zarar miqdoridan ko‘proq bo‘ladi.

Ommaviy tartibsizliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda, avvalo, ularning o‘ziga hos xususiyati va paydo bo‘lish bosqichlarini chuqur tahlil qilish lozim.

Ekspertlar tomonidan ommaviy tartibsizliklar turli mezonlarga ko‘ra quyidagicha klassifikatsiya qilinmoqda.

Rivojlanish tendentsiyasi (tendentsiya o‘zi nima degani – tendentsiya so‘zi ruscha so‘zdan olingan bo‘lib, mayl, rag‘bat, moyillik, intilish degan manolarni anglatadi);

- ommaviy tartibsizliklarning zamonaviy ko‘rinishlari va rivojlanish tendentsiyasini xorijiy davlatlar misolida o‘rganish (Qozog‘iston va Fransiya Respublikalari);

- ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish va oldini olish faoliyatini o‘rganishdagi yondoshuvlarni o‘rganish;

- ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish uchun yig‘ma otryadni an‘anaviy usullardan foydalangan holda tayyorlash hamda qo‘llaniladigan moddiy texnik ta‘minot va epikirovkalarini o‘rganish;

- ommaviy tartibsizliklarni oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha Belorusiya, Rossiya maxsus bo‘linmalarini tayyorlashning o‘ziga hos xususiyatlarini o‘rganish;

- ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish uchun yig‘ma otryadni zamonaviy usullardan foydalangan holda tayyorlash va tadbqiq etish chora-tadbirlarini takomillashtirish bo‘yicha asosli takliflar ishlab chiqish.

Ommaviy tartibsizlikni paydo bo‘lishi ya‘niy kelib chiqish sabablari bo‘yicha:

- ijtimoiy-iqtisodiy (oziq-ovqat yetishmovchiligi, yuqori inflyatsiya, umumiy ishsizlik va boshqalar);

- siyosiy (davlat siyosatidan norozilik, demokratik erkinliklarning cheklanishi, davlat organlarida korrupsiyaning avj olishi va boshqalar);

- etnik (milliy ozchilik huquqlarining buzilishi, boshqa millat vakillarining hokimiyatda ustunligi va boshqalar);

- diniy (turli diniy konfessiyalar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar);

- jinoiy (jinoiy guruhlar o‘rtasidagi ta‘sir doiralarini qayta taqsimlash uchun kurash);

- aholining ma‘lum qismi ongi va psixologiyasida qotib qolgan elementlarning (diniy mutaassiblik, millatchilik va boshqalar) mavjudligi;

- boshqalar (masalan so‘nggi vaqtlardagi ekstremistik guruhlarining hujumlari, futbolning ashaddiy muxlislari o‘rtasidagi to‘qnashuvlar).

Yuqorida keltirib o‘tilgan barcha sabablar negizida doimo taraflar o‘rtasidagi turli qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar va hal qilinmagan muammolar mavjud bo‘ladi. Masalan, 2019-yil oktabr oyida Iroq davlatida boshlangan ommaviy tartibsizliklar mamlakatdagi korrupsiya, ishsizlik va xalqning og‘ir sharoitlarda hayot kechirishi oqibatida vujudga kelgan. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda Iroqda yoshlar orasidagi ishsizlik darajasi 25 foizga yetgan.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy tartibsizliklar ro‘y berganda shaxs, davlat va jamiyat uchun quyidagi og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumki:

- fuqarolarning o‘limiga sabab bo‘lishi, kimlardir otasiz, kimlardir onasiz va kimlardir yaqin qarindoshlaridan ajralib qolishi mumkin;

- turli og‘irlikdagi tan jarohatlar yetkazishiga, kimlardir oyog‘idan, kimlardir qo‘lidan, kimlardir bir umirga nogiron bo‘lib to‘shakka yotib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin;

- katta miqdordagi moddiy zarar yetkazishiga, ya‘ni elektir energiyasiga zarar etishi, savdo do‘konlarining va ishlab chiqish inshootlarining talon taroj qilinishiga sabab bo‘lishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 244-moddasi. Toshkent, 2014y, 132 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: – “O‘zbekiston” 2023y, 84 b.
3. <https://darakchi.uz>. Iroqdagi norozilik namoyishlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil.
5. 2019-yil 18 fevral kunidagi 522 sonli Qonuni bilan tasdiqlangan “Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi ba’zi davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi qonuni.
6. <https://uzmarkaz.uz/news/yangi-ozbekistonda>.
7. <https://www.uzairways.com/>.
8. <https://www.lex.uz/>.